

Hindiy tilidagi ingliz tili o'zlashmalarining etimologik tahlili

Rashidova To'maris

2-kurs magistranti

So'zlarni kelib chiqish tarixini o'rganuvchi soha etimologiya (grekcha etymon – haqiqiy, logos – ta'limot) deyiladi. Etimologiya tilshunoslikning juda qadimiy sohasi bo'lib, eramizdan avvalgi faylasuf va filologlar ham so'zlarning dastlabki kelib chiqish tarixi bilan shug'ullanganlar. “Etimologiya” termini qadimiy Rim olimlari Xrizipp va Varron nomlari bilan bog'liq ekanligi ehtimol qilinadi. So'zlarning haqiqiy va birinchi asl ma'nolari va shakllari til tarixi, boshqa tillar va dialektlardagi shu so'z to'g'ri kelgan o'zakka ega bo'lgan so'zlar bilan qiyoslash asosida aniqlanadi. Bunda so'zlarning avvalgi ma'nosi va shakllari chuqur o'rganiladi. So'zlarning kelib chiqish tarixi tarix, arxeologiya, geografiya, antropologiya, madaniyat va san'at kabi qator fanlar yordamida aniqlanadi. So'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganish tamoyillari va metodlari ancha murakkab bo'lib, boshqa fanlarga murojaat etishni taqozo etadi. “Etimologiya” termini tilshunoslikda ikki ma'noda ishlatiladi: leksikologiyaning ma'lum tilda so'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganuvchi sohasi ma'nosida hamda biror so'zning birinchi asl ma'nosi va shakli ma'nosida.

So'zlar kelib chiqish nuqtayi nazaridan bir xil emas. Hindiy tilida ingliz tili o'zlashmalari bir xilda qabul qilinsa-da, etimologik jihatdan har xil hisoblanadi. Turli xilligi sababi, ingliz tili tarixi rivojlanish davomida, tarixiy madaniy aloqalar olib borgan. Ushbu leksikaning ichida turli qatlamga oid so'zlar bor.

Quyida hindiy tilidagi ingliz tili o'zlashmalaridan misollarning etimologik tahlili keltiriladi. Doktor Ernest Kleinning “A comprehensive

etymological dictionary of the English language” lug’ati asosida hindiy tiliga o’zlashgan so’zlarning etimologik tahlili qilindi. Hindiy tilida ular ingliz tili so’zlari sifatida qaralsa-da, ingliz so’zi emasligi aniqlandi. Xalqaro terminlarning ko’pchiligi yunon-grek so’zlariga oid. Misol tariqasida etimologik turli xilligini ko’rsatish maqsadida, har bir til guruhiga bir necha misollar berildi. Guruhlar ketma-ketligi miqdor jihatida e’tiborga olingan holda berildi.

I. Lotin tilidan o’zlashgan so’zlar:

- Graduate – o’rta asrlar lotin tilida *graduatus*, lotin tilida *gradus* ‘bosqich, daraja’ degan ma’nolarni anglatadi.
- September – yilning to’qqizinchi oyi. Lotincha *September* adabiy tilda qadimgi Rimda yil hisobining yettinchi oyi. *Septem-* ‘yetti’so’zidan olingan. Rimda yil mart oyidan boshlangan.
- Director – normannlar tilida *directour* fransuz tilidagi *directeur* so’zi bilan ekvivalent hisoblanadi. O’rta asrlar lotin tilidan *directorem* so’zidan olingan ‘rahbar, boshliq’ ma’nolarini anglatadi.
- Martial – ‘harbiy, urushga oid’. Lotin tilidagi *Martis* ‘Mars’ sayyora nomidan olingan *Martialis* ‘Marsning, Marsniki’degan ma’nolarni anglatadi.
- Ultimatum – ‘so’nggi qat’iy talab’. O’rta asr lotin tilida *ultimatus* so’zidan olingan.

II. Fransuz tilidan o’zlashgan so’zlar:

- Foundry – fransuz tilidagi *fonderie* so’zidan olingan ‘metal qo’yish’ degan ma’noni anglatadi.
- Commander – qadimiy fransuz tilida *comandeor* fransuzcha *commandeur* so’zidan olingan ‘komandir, boshliq’ degan ma’nolarni anglatadi.
- Chemist – fransuzcha *chimiste* so’zidan olingan bo’lib ‘kimyogar, formatsevt’ degan ma’nolarni anglatadi.

- Observatory – ‘tabiiy, xususan, astronomik o’zgarishlarni tadqiqot qiladigan xona’ fransuzcha *observatoire*, *observer* so’zidan olingan.
- Oxygen – ‘gazsimon kimyoviy element’. Fransuzcha *oxygene* ‘oksidlanish qonuniyati’ degan ma’noni bildirib, fransuz olimi Antoine-Lourent Lavoisier tomonidan (1743-1794) 1777-yilda nomlangan.

III. Yunon tilidan o’zlashgan so’zlar:

- Autocracy – yunon tilidan ‘kuchli siyosiy hokimiyat, diktatorlik’ degan ma’noni anglatadi.
- Anarchy – fransuz tilida *anarchie*, yunoncha ‘rahbarsiz hokimiyat’
- Christ – lotin tilida *Christus*, yunonchada yahudiy tilidan tarjima qilinganda ‘muqaddas yog’ surilgan’ degan ma’noni anglatadi.
- Christian – lotin tilida *christianus*, yunon tilida ‘xristianlik dinida sig’inuvchi kishi’.
- Encyclopedia – o’rta asrlar lotin tilida *encyclopaedia* yunon tilida esa, ‘umumiy ta’lim, keng yoyilgan ta’lim’, adabiy tilda ‘keng doirada shug’ullanish’ degan ma’noni beradi.

IV. Etimologik jihatdan bir necha tillarga oid bo’lgan so’zlar:

- Almanac – ‘astronomik vaqtni ko’rsatuvchi va boshqa foydali ma’lumotlar beruvchi taqvim’. O’rta asrlar lotin tilida *almanachus*, fransuz tilida *almanach*, italyan tilida *almanacco*, ispan tilida *almanaque*, nemis tilida *anmanach*. Yunon tilida “taqvimlar” degan ma’noni anglatadi.
- Aerial – sifat so’z turkumi yasovchi *-alsuffiksi* orqali yasalib, yunon va lotin tilidan *aerius* olingan ‘havoning, havoga oid’ ma’nolarini bildiradi. Ilk bor Shekspir tomonidan qo’llanilgan.
- Atom – fransuz tilida *atome*, lotin tilidan *atomus*, yunon tilidagi *atom* so’zlaridan olingan. Birinchi bo’lib yunon faylasufi Leucippus tomonidan qo’llanilgan.

- Carat –qimmatbaho tosh va javohirlarni o'lchaydigan og'irlik o'lchov birligi. O'rta asrlar lotin tilida *carratus*, italyancha *carato*, arab tilida *qitatos*'zlaridan olingan bo'lib, 'shoxli daraxt mevasi', 'to'rt dona urug' og'irligi' degan ma'nolarni bildiradi. Yunon tilida *carat* so'zi 'kichik urug'' ma'nosini anglatadi.
- Iron – qadimiy ingliz tilida *ise(r)n*, *iren*, qadimiy sakson tilida *isarn*, qadimiy normann tilida *sarn*, *jarn*, qadimiy yuqori german tilida *isarn*, *isan*, nemis tilida *eisen* 'temir', 'cho'yan' degan ma'noni bildiradi.

V. Italyan tilidan olingan o'zlashmalar:

- Bomb – italyan tilida *bomba* 'portlatuvchi modda, qurol' degan ma'noni anglatadi.
- Quarantine – 'yuqumli kasallikdan saqlanish muddati (aslida 40kun)' degan ma'noni bildirib, italyan tilidagi *quarantina* 'qirq' degan ma'noni anglatadi. Bu so'z italyan tilidagi *quaranta giorni* 'qirq kun' birikmasida ishlatilgan. Levantiy va Misrdan kelgan kemalar maxsus joylarda 30 kun, keyinchalik 40 kun saqlangan. Bu tizim ilk bor 1377-yilda Ragusada tarqalgan yuqumli kasallikning yoyilishini oldini olish uchun qo'llangan. Bu haqida K. Sudhoffning "O'tmishda qo'llangan epidemiyaga qarshi choralar" kitobida ma'lumot uchraydi. (F.H.Garrison tomonidan tarjima qilingan, Nyu-York, 1926-yil, 152-bet).
- Infantry – fransuz tilida *infanterie*, italyan tilidagi *infante* 'yosh bola, xizmatchi', 'piyoda askar' degan ma'noni anglatuvchi so'zdan olingan bo'lib, italyancha *infanteria* 'piyoda askar' ma'nosini anglatadi.
- Alarm – fransuzcha *alarme*, italyan tilidagi *allar`me* 'qo'lga olmoq' degan ma'noni bildiradi.

VI. Kam sonli boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar:

- India – qadimgi forsiy va hindiy tilida *Sindhuh* 'daryo' so'zidan olingan.

- Apartheid – ‘Janubiy Afrikadagi qora tanlilarga qarshi tuzilgan irqiy ayirmachilik politsiyasi’. Janubiy Afrikadagigolland tilidan *apart* ‘ajratmoq, ayirmoq’ so’ziga *heid* ‘-lik’ qo’shimchasini qo’shish bilan yasalgan.
- Admiral – qadimiy fransuz tilida *amiral*, *amiralt*, arab tilidagi *amir-ar-rahl* ‘transport boshlig’i, ‘kema floti komandiri’ degan ma’nolarni anglatuvchi so’zdan olingan. Shuningdek, bu so’z Portugal tilida *amiralhs*, *amirat*, italyan tilida *ammiraglio* shaklida uchraydi.
- Quintal – ‘og’irlik o’lchov birligi’. O’rta asrlar lotin tilida *quintale*, arab tilidan *qintar* so’zidan olingan.
- Kremlin – Rossiyaning Moskva shahridagi bino bo’lib, rus tilidan *kreml* ‘qal’a ichidagi bino (tatarlar hududida joylashgan)’ degan ma’noni bildiradi.

Ushbu tahlil doktor Ernest Kleinning “A comprehensive etymological dictionary of the English language”¹ ikki tomli lug’ati asosida amalga oshirildi.

Tahlil natijalaridan ayon bo’ldiki, ingliz tili o’zlashmalarining etimologiyasini tadqiq etish jarayonida lotin tilidan kelib chiqqan so’zlar eng ko’p miqdorda ekanligi aniqlandi. Keyingi o’rinlarni fransuz va yunon tilidan kelib chiqqan so’zlar egalladi. Shuningdek, etimologik jihatdan tahlil davomida ba’zi so’zlarning bir vaqtning o’zida bir necha tilga oid ekanligi ma’lum bo’ldi. Italyan, ispan, arab tilidan kelib chiqqan so’zlar nisbatan kamroq miqdorni tashkil etdi.


Hozirgi kunda jahon tillari qatoridan joy oluvchi ingliz tilining etimologiyasida tashqi manbalar asosisidagi boshqa tillardan kelib chiqqan tillar mavjudligi aniqlandi. Ushbu so’zlarning ko’pchiligi xalqaro ahamiyat kasb etadi, shuningdek, ko’plab tillar leksikasida uchraydi.

¹Ernest Klein. A comprehensive etymological dictionary of the English language. Elsevier Publishing Company Amsterdam, London, New York 1966

Yuqoridagi tahlilga asosan, quyidagi sxemani keltirish mumkin.

Ingliz tili o'zlashmalarining etimologiyasi

Tub ingliz tili asosidagi elementlar



O'zlashgan so'zlarning etimologik sxemasi:

